**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Bryussel karamini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

**(FFV-08:2023, IDT)**

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**
**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## So‘zboshi

**1** O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

**2** O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

**3** Ushbu standart FVV-08:2023 “Concerning the marketing and commercial quality control of brussels sprouts ” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

**4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI**

*Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi*

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beradi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, ishlab chiqaruvchilarning rentabelligini oshiradi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi.

BMT EEC standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli ishtirok etishi mumkin. BMT EECning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Bryussel karami uchun ushbu qayta ko‘rib chiqilgan standart Ishchi guruh tomonidan ol mish oltinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/GE.1/2010/INF.38 hujjatiga asoslangan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

# BRYUSSEL KARAMINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

# СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ МАРКЕТИНГА И КОММЕРЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА БРЮССЕЛЬСКОЙ КАПУСТЫ

# STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF BRUSSELS SPROUTS

**Amalga kiritish sanasi: 25.03.2026**

## I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchilarga yangi holda yetkazib berilishi mo‘ljallangan *Brassica oleracea var. gemmifera DC.* navlari (kultivarlar)dan o‘sadigan yon kurtaklar — bryussel karamini qamrab oladi; sanoat qayta ishlash uchun mo‘ljallangan bryussel karamiga tatbiq etilmaydi.

## II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi — bryussel karamini tayyorlash va qadoqlashdan keyingi sifat talablarini belgilashdir. Biroq, eksport yoki jo‘natish bosqichlaridan keyingi qo‘llanishda mahsulotlar quyidagi holatlar bo‘yicha standart talablariga nisbatan:

- biroz yangiligi va tarangligini yo‘qotishi,
- rivojlanishi va tez buziluvchanligi sababli ozgina sifat pasayishini ko‘rsatishi mumkin.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni standartga muvofiq bo‘lmagan holatda namoyish etishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki har qanday shaklda realizatsiya qilishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchisi mazkur muvofiqlikni ta’minlash uchun mas’uldir.

### A. Minimal talablar

Barcha navlarda, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlarga muvofiq, bryussel karami quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- butun holda bo‘lishi;
- Sifatli; iste’molga yaroqsiz qilib qo‘yadigan chirish yoki buzilishdan zararlangan mahsulotlar chiqarib tashlanadi;
- toza bo‘lishi, ko‘rinadigan begona moddalar deyarli bo‘lmasligi;
- tashqi ko‘rinishi yangiligini saqlashi;
- zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan deyarli xoli bo‘lishi;
- ortiqcha tashqi namliksiz bo‘lishi tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;
- begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Qirqilgan bryussel karamining poyasi tashqi barglar ostidan kesilishi lozim. Qirqilmagan bryussel karamining poyasi esa boshqa o‘simlik qismlari yopishmagan holda, tagida toza siniq ko‘rinishi kerak.

Bryussel karamining rivojlanishi va holati quyidagilarni ta’minlashi lozim:

- tashish va ishlov berishga bardosh bera olish;

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borish.

**B. Tasniflash**

Bryussel karami quyida belgilanganidek ikki navga ajratiladi:

(i) **I-nav**

Ushbu navdagi bryussel karami yaxshi sifatli bo‘lishi shart. U nav va/yoki tijorat turiga xos bo‘lishi lozim. Bryussel karami quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• mustahkam bo‘lishi;
• yaxshi yopiq bo‘lishi;
• sovuq urishidan kelib chiqqan shikastlanishlardan xoli bo‘lishi;
• qirqilgan bryussel karamida yaxshi rangga ega bo‘lishi.

Quyidagi kichik nuqsonlarga ruxsat berilishi mumkin, biroq ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyati va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi lozim:

• shaklda ozgina nuqson;
• qirqilmagan bryussel karamida tag barglarning biroz rangsizlanishi;
• terisida ozgina nuqsonlar;
• tashqi barglarda ozgina shikastlanish.

**(ii) II-nav**

Ushbu sinf I-navga kiritish talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan minimal talablarni qondiradigan bryussel karamlarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi nuqsonlarga ruxsat berilishi mumkin, biroq bryussel karami sifat, saqlanish xususiyati va ~~taqdimot~~ bo‘yicha o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi lozim:

• shakldagi nuqsonlar;
• rangdagi nuqsonlar;
• teridagi nuqsonlar;
• biroz tarang emasligi;
• unchalik yopiq emas, lekin ochiq ham emas;
• sovuq ta’siridan kelib chiqqan kichik shikastlanish.

**III. O‘lchamlarga oid qoidalar**

O‘lcham ekvatorial kesimning maksimal diametri asosida belgilanadi.

Minimal diametr:

- qirqilgan bryussel karam uchun — 10 mm;
• qirqilmagan bryussel karam uchun — 15 mm.

O‘lcham bir xilligini ta’minlash maqsadida, bir xil qadoqdagi mahsulotlar o‘lchamlaridagi farq 20 mm dan oshmasligi lozim. I-nav uchun o‘lcham bir xilligi majburiy hisoblanadi.

**IV. Chegaralarga oid qoidalar**

Barcha savdo bosqichlarida, ko‘rsatilgan[1] nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir to‘plamda sifat va o‘lcham bo‘yicha muayyan og‘ishlarga ruxsat etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[1] Muvofiqlik tekshiruvi birlamchi yoki murakkab namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Bu tekshiruv tasodifiy olingan namunalar sifati butun to‘p sifatini aks ettiradi, degan tamoyilga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha IHTT amaliy qoidalarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosining ulgurji-taqsimlash markazlari va omborxonalarida qo‘llash tavsiya etiladi. Bu qoidalarni operatorlar ham qo‘llashlari maqsadga muvofiq.

**A. Sifat bo‘yicha chegaralar**

(i) **I-nav**

Umumiy hisobda, soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizgacha bryussel karami mazkur nav talablariga javob bermasligi, biroq II-nav talablariga javob berishi mumkin. Ushbu chegarada jami 1 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda II-nav sifat talablariga ham, minimal talablariga ham javob bermaydigan yoki chirigan mahsulotlarga ruxsat etiladi.

(ii) **II-nav**

Umumiy hisobda, soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizgacha bryussel karami mazkur nav talablariga ham, minimal talablariga ham javob bermasligi mumkin. Ushbu chegarada jami 2 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda chirigan mahsulotlarga ruxsat etiladi.

**B. O‘lcham bo‘yicha chegaralar**

Barcha navlar uchun (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa): soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizgacha bryussel karami o‘lcham talablariga javob bermasligi mumkin.

## V. Ko‘rinishiga oid qoidalar

**A. Bir xillik**

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqish, nav yoki mahsulot turi, sifat hamda (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa) o‘lchamdagi bryussel karamidan iborat bo‘lishi lozim. Qadoq tarkibining ko‘rinadigan qismi butun tarkibni ifodalashi shart.

**B. Qadoqlash**

Bryussel karami mahsulotni to‘g‘ri himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak. Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Materiallardan, xususan, savdo belgilari tushirilgan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga ruxsat etiladi, biroq bosma yoki yorliqlash zaharli bo‘lmagan siyoh yoki elim bilan amalga oshirilgan bo‘lishi shart. Mahsulotga alohida yopishtirilgan stikerlar olib tashlanganda ko‘rinadigan elim izlarini qoldirmasligi va teri nuqsonlariga olib kelmasligi lozim. Qadoqlar begona moddalaridan xoli bo‘lishi shart.

## VI. Belgilashga oid qoidalar

Har bir qadoqda quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, o‘qilishi oson va o‘chmas tarzda yozilgan hamda tashqaridan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim:

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**A. Identifikatsiya**

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi: Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi va agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa — mamlakat) yoki milliy vakolatli organ tomonidan rasmiy tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECE Kod Belgilari reyestrida ro‘yxatga olingan bo‘lsa. Agar ko‘cha manzili mavjud bo‘lmasa, jismoniy manzil fermer xo‘jaligi yoki korxona nomi, eng yaqin qishloq, shahar, hudud va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; shuningdek, GPS koordinatalari va pochta qutisi manzili eng yaqin shahar, hudud va mamlakat bilan birgalikda jismoniy manzil sifatida qabul qilinadi.

**B. Mahsulotning xususiyati**

• Agar qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa, “Qirqilgan bryussel karami” yoki “Qirqilmagan bryussel karami” deb belgilanishi lozim.

**C. Mahsulotning kelib chiqishi**

• Kelib chiqish mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi ko‘rsatilishi kerak.

**D. Mahsulotga qo‘yiladigan talablar**

• Nav;

• O‘lcham (agar belgilangan bo‘lsa), minimal va maksimal diametrlar ko‘rinishida ifodalanadi.

**E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)**

1964-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2010-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2023-yilgi standart tartibga moslashtirilgan

---

[2] Ushbu qadoqlash qoidalari mazkur tafsilotlar ko‘rsatilgan o‘ramlarda taqdim etilgan savdo paketlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etilgan savdo paketlari (oldindan qadoqlangan mahsulotlar) uchun amal qiladi.

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisidan foydalanilgan holda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga o‘xshash qisqartmalar)" iborasi kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi lozim. Agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 (alfa-2) mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi shart.

4 Quyidagi havolaga qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

5 Amerika Qo‘shma Shtatlari pochta qutisi manzilidan foydalanishga e’tiroz bildiradi, chunki bu obyektlarni tekshirishga yoki mahsulotni chaqirib olish zarur bo‘lganda tezkor choralar ko‘rishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, bu qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi bilan bog‘liq milliy qadoqlash talabining bir qismi hisoblanmaydi.

6 To‘liq yoki keng tarqalgan nom ko‘rsatilishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #8GSCTDBU62 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI